



SURXONDARYO VILOYATI SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR HAJMINING STATISTIK TAHLILI

Hojiqulova Feruza Dona qizi
Termiz davlat universiteti
ORCID: 0009-0000-0120-4011
hojiquovaferuza@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz aholisini turli xil mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlaydigan sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiyalar statistik tahlili keltirilgan. Ushbu viloyatda 2010-2023 yillarda sanoat korxonalari soni va kiritilgan investitsiya hajmi hamda yalpi hududiy mahsulotlar miqdori haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya hajmi, sanoat sektoriga investitsiyalar, investitsiya oqimi, O'zbekiston iqtisodiyoti, investitsiya infratuzilmasi, iqtisodiy tahlil.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЪЕМА ИНВЕСТИЦИЙ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ПРЕДПРИЯТИЯ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Хожиқулова Феруза
Термезский государственный университет

Аннотация. В статье представлен статистический анализ инвестиций в промышленные предприятия, обеспечивающие население нашей страны различными продуктами и услугами. Информация о количестве промышленных предприятий и объеме инвестиций, осуществленных в этом регионе в 2010-2023 годах, а также объеме валового регионального продукта.

Ключевые слова: объем инвестиций, инвестиции в промышленный сектор, инвестиционный поток, экономика Узбекистана, инвестиционная инфраструктура, экономический анализ.

STATISTICAL ANALYSIS OF THE VOLUME OF INVESTMENTS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES OF SURKHANDARYA REGION

Hojiqulova Feruza
Termez State University

Abstract. The article presents a statistical analysis of investments in industrial enterprises that provide various products and services to the population of our country. Information on the number of industrial enterprises and the volume of investments made in this region in 2010-2023, as well as the amount of gross regional products.

Keywords: investment volume, investments in the industrial sector, investment flow, Uzbekistan's economy, investment infrastructure, economic analysis.

Kirish.

Mamalakatimizda so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda xorijiy va mahalliy investorlarga iqtisodiyotimizga investitsiya kiritishi uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlar ochib, ularning faoliyat olib huquqiy tomondan kafolatlanmoqda. Bu esa "investitsion jozibadorlik"ni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Har bir sohaning qanday darajada o'zgarayotganligini statistik tahlil qilish orqali amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar sharhi.

Surxondaryo viloyatidagi soha va tarmoqlarning rivojanishining statistik tahlilini bir qancha olimlar o'rganishgan. Xususan mintqa iqtisodiy tizimini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellarini (Xatamov, 2024), hududdagi qurilish materiallarining o'zgarish tendensiyasini (Turayev, 2023), hududdagi meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni, qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini (Ibragimov, 2022) va boshqalar. Lekin yuqoridagi barcha izlanishlarda sohaga jalb etilgan investitsiyalarning statistik tahlili qilinmagan Xususan hududdagi qurilish matreallarining o'zgarish tendensiyasini (Turayev, 2023), hududdagi meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni (Jo'raev, 2023), qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini (Ibragimov, 2024) va boshqalar. Lekin yuqoridagi barcha izlanishlarda sohaga jalb etilgan investitsiyalarning statistik tahlili qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Surxondaryo viloyatiga jalb etilgan investitsiyalar va ularning iqtisodiy ta'sirini statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2010-2023 yillar mobaynida Surxondaryo viloyatiga jalb etilgan sanoat korxonlari soni 36 tadan 400 tagacha ortganini kuzatish mumkin. Ya'ni tahlil qilingan yillar mobaynida umumiy hisobda 4925 ta sanoat korxonasi tashkil etilgan.

1- jadval

2010-2023 yillarda Surxondaryo viloyatidagi korxonalarga jalb etilgan investitsiyalar miqdori va korxonalar soni

Yillar	Sanoat korxonalar soni	Kiritilgan investitsiyalar miqdori (mlr so`m)	Yalpi hududiy mahsulot
2010	36	178	3 394,7
2011	72	206,2	5 217,1
2012	65	272,8	6 436,4
2013	97	379,3	7 436,4
2014	87	438,8	9 213,2
2015	109	527,2	11 114,4
2016	150	675,5	12 179,6
2017	212	886,9	14 404,4
2018	374	1516	18 592,5
2019	716	2213	22 288,1
2020	1225	2768	24 625,6
2021	834	3715,8	29 693,2
2022	548	4987	34 385,3
2023	400	5943,8	40 909,8
Jami	4925	24708,3	239890,7
O'rtacha	205,21	1029,51	9995,44

Bu esa sanoat korxonalari soni har yiliga o'rtacha 205 ta ortib borganini anglatadi. Agar har bir yil bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori qiymati 2020 yilda 1225 tani tashkil etgan. Kiritilgan investitsiyalarning miqdori esa 2010 yilda 178 mlrd so'm bo'lgan, 2023 yilga kelib ushbu qiymat 5943,8 mlrd so'mni tashkil etmoqda. O'rtacha qiymat 9995,4 mlrd so'mni, umumiyligi qiynatda esa 239890,7 mlrd so'mni hosil qilgan. Yillar kesimida jalb etilgan investitsiyaning eng katta qiymati 2023 yilga 5943,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda eng kichik miqdor 178 mlrd so'm kuzatilgan. Jalb etilgan investitsiyalar miqdori hamda hududda yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalari o'z navbatida hududning yalpi mahsulotlarining o'zgarishida o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Ushbu tahlil qilinayotgan yillarda yalpi hududiy mahsulot miqdori qariyb 13,5 martaga ortdi. Ushbu o'sish miqdori ayniqsa "Yangi O'zbekiston" iqtisodiyotida sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. 2010 yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 2010 yilda 3 394,7 mlrd so'mni, 2023 yilda esa 40 909,8 mlrd so'mni tashkil etgan. YHM ning o'rtacha miqdori 9995,44 mlrd so'mni, jami esa 239890,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasini quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



1- rasm. 2010-2023 yillarda Surxondaryo viloyatidagi korxonalarga jalb etilgan investitsiyalar miqdori va korxonalar soni va YHM

Tahlillar bat afsil va to'liq bo'lishi uchun mutloq o'zgarish, o'sish sur'ati hamda ortirma sur'ati ko'rsatkichlarining zanjirsimon va bazisli usulda qiymatlarni ko'rib chiqish kerak (Ibragimov, 2022). Mutloq o'zgarish zanjirsimon usulda $\Delta Y = Y_k - Y_{k-1}$ tartibda, bazisli usulda esa $\Delta Y = Y_k - Y_{\text{bazis}}$ usulda topiladi. O'sish sur'atining zanjirsimon usulda aniqlanishi ko'rsatkichning joriy yildagi qiymatining o'tgan yildagi qiymatiga nisbatining foizlarda ifodalanganligi bilan topiladi ya'ni

$\Delta T = \frac{Y_k}{Y_{k-1}} \cdot 100\%$. Bazisli usulda esa o'tgan yildagi qiymat o'rniga bazaviy deb hisoblanayotgan yildagi qiymat olinadi. $\Delta T = \frac{Y_k}{Y_{\text{bazis}}} \cdot 100\%$ Ortirma sur'ati esa mutloq o'zgarishning o'tgan yildagi qiymatiga nisbatning foizlarida ifodalanishidir. $\Delta K = \frac{Y_k - Y_{k-1}}{Y_{k-1}} \cdot 100\%$. Bazisli usulda xuddi yuqoridaq singari topiladi faqat bunda 1 yil oldingi qiymat emas balki bazis yili inobatga olinadi (Ibragimov, 2024).

Quyidagi 2-jadvalda Surxondaryo viloyatiga jalb etilgan investitsiyalar miqdorining mutloq o'sish, o'sish sur'ati hamda ortirma sur'ati ko'rsatkichlarining zanjirsimon va bazisli usuldagagi tahlili qilindi.


2-jadval

2010-2023 yillarda viloyatdagi faoliyat yuritayotgan sanoat korxonlari miqdorining mutlaq o'sish, o'sish sur'ati hamda ortirma sur'ati ko'rsatkichlarining zanjirsimon va bazisli usuldagagi tahlili

Yillar	Sanoat korxona-lari soni	Mutloq o'zgarish		O'sish sur'ati(%)		Ortirma sur'ati	
		Zanjir simon usulda	Bazisli usulda	Zanjirsi mon usulda	Bazisli usulda	Zanjir-simon usulda	Bazisli usulda
2010	36	36	36				
2011	72	-7	29	200	200	-119,44	-119,44
2012	65	32	61	90,28	180,56	-557,14	108,33
2013	97	-10	51	149,23	269,44	-131,25	-116,67
2014	87	22	73	89,69	241,67	-320	88,89
2015	109	41	114	125,28	302,78	86,36	52,78
2016	150	62	176	137,61	416,67	51,22	58,33
2017	212	162	338	141,33	588,89	161,29	277,78
2018	374	342	680	176,41	1038,89	111,11	500
2019	716	509	1189	191,44	1988,89	48,83	463,89
2020	1225	-391	798	171,08	3402,78	-176,82	-2500
2021	834	-286	512	68,08	2316,67	-26,85	291,67
2022	548	-148	364	65,70	1522,22	-48,25	383,33
2023	400	36	36	72,99	1111,11	-920,94	1422,2
Jami		364	4421	1679,16	13580,56	-38,37	-968,99
O'rtacha		15,17	184,21	69,96	565,85	-119,44	-119,44


Agar yillar bo'yicha mutloq o'zgarish qiymati zanjirsimon usuldagagi tahlili 2011, 2013,2020 va 2022 yillarda manfiy qiymatni qabul qilmoqda. Ya'ni ushbu yillarda o'tgan bir yilga nisbatan sanoat korxonalari kamayganligini ko'rsatadi. Qolgan yillarda mutloq o'zgarishning zanjirsimon usulidagi qiymati o'sishga erishgan. Demak mazkur yillarda hududda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni ortib borgan. Tahlildagi 24 yilda jami 364 ta yangi sanoat korxonalari taskil etilgan bo'lsa, bu o'rtacha 15 tani tashkil etadi. Eng yuqori o'sish qiymati 2019 yilda 509 tani eng kichik qiymat esa 2020 yilda -286 tani tashkil etmoqda. Bizning fikrimizcha 2020 yilda sanoat korxonalari sonining bunday keskin kamayishiga asosiy sabab sifatida butun jahonda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi deb hisoblash mumkin. Chunki ushbu yilda kiritilgan cheklarfonida sanoatning barcha soha va tarmoqlarida keskin tushish kuzatildi. Mutloq o'zgarishning bazisli usulda tahlil qilinganda jami 4421 ta sanoat korxonalari tashkil etilgan va bu tahlildagi 24 yilda o'rtacha 184 tani tashkil etadi. Bazis yil 2010 yilda 36 tani 2016 yilda esa 178 tani tashkil etadi. "Yangi O'zbekiston"da iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor qaratdi. Buni sanoat korxonalari mutloq o'zgarishining bazisli usulda tahlilida ko'rish mumkin. 2017 yilda 338 taga, 2018 yilda 342 taga, 2019 yilda 1189 taga, 2020 yilda 798 taga 2021 yilda 512 taga, 2022 yilda 36 taga ortganini kuzatish mumkin.

O'sish sur'atining zanjirsimon usulda tahlil qilinganda ham jami 1679 % ga, o'rtacha esa 69,96 % ga ortanini ko'rish mumkin. Yillar bo'yicha qilingan tahlillar esa eng kichik qiymati 2020 yilda 65,7 % dan eng yuqori o'sish 2011 yilda 200 % gacha bo'lgan oraliqda o'zgargan. O'sish sur'ati bazisli usulda tahlil qilinganda albatta faqat o'sishga erishgan. Buni quyidagi raqamlar ham ifodalaydi. 2012 yilda 180,56 %, 2013 yilda 269,44 % ga ortganini kuzatish mumkin.




2- rasm. Sanoat korxonalari sonining zanjirsimon va bazisli usulda mutloq o'zgarishi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Yangi O'zbekiston" da iqtisodiyotimiz rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Buni sanoat korxonalari sonining o'sish sur'atining bazisli usuldag'i tahlilida ham kuzatish mumkin. E'tibor qiling, 2017 yilda 588,99 % ga, 2018 yilda 1038,89 % ga, 2019 yilda 1988,89 % da 2023 yilda esa 1111,11 % ga o'sishini kuzatildi. O'sish sur'atining o'zgarish dinamikasini quyidagi 2.1.3-rasmda ko'rish mumkin.



3- rasm. O'sish sur'atining o'zgarish dinamikasining zanjirsimon va bazisli usulda tasviri

Ortirma sur'ati tahlilining zanjirsimon va bazisli usluda o'zgarish dinmaikasi ham yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichning zanjirsimon usulda umumiy quymati jami -38,37 %ni, o'rtacha qiymati esa -119,44 % ga teng bo'ldi. Agar yillar bo'yicha tahlil qilingansa 2015,2016,2017 va 2018 yillarda musbat qilymatni qabul qildi. Bu esa ushbu yillarda ortirma sur'atining oshishini boshqacha qilib aytaganda esa mutloq o'zgarish qiymati musbat qilymatni tashkil etganini ifodalaydi. Qolgan yillarda o'sish sur'ati manfiy qilyatlarni qabul qildi. Bu esa mazkur yillarda sanoat korxonalarining soni bir yil oldigiga nisbatan kamayganligini anglatadi. Ortirma sur'atining bazisli usulda tahlili qilinganda eng kichik qiymat 2020 yilda -2500 % ni, eng katta qiymati esa 1422 % ni tashkilm etmoqda. Umuman olganda tahlil qilingan ushbu 24 yil mobaynida jami -968,99 %ni o'rtacha qiymati esa -119,44 % ni tashkil etdi. Ushbu raqamlar tahlil qilingan yillarda sanoat korxonalari sonining ortirma sur'atining o'zgarish dinamikasi sezilarli darajada katta ekanligini anglatadi.



4- rasm. Ortirma sur'atining zanjirsimon va bazisli usulda tahlillari tasviri

Agarda ma'lum yillar davomida soha ulushi yoki hajmi to'g'risidagima'lumotlarning mutloq qiymati ma'lum bo'lsa, ularni taqqoslash uchun olingan biror davrga nisbatan o'zgarishini vaqtli qatorlarning mutloq o'zgarish (zanjirsimon va bazisli), o'sish sur'ati (zanjirsimon va bazisli), 1% qo'shimcha o'sishning (yoki kamayishning) qiymati, ortirma sur'ati (zanjirsimon va bazisli), mutloq jadallahish yoki so'nish sur'ati, optimal jadallahish yoki so'nish sur'ati kabi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda statistik tahlil amalga oshiriladi (Sayfullayev, 2021).

Zanjirsimon usulda mutloq o'zgarishning ortirma sur'atiga nisbati 1% qo'shimcha o'sish qiymati deb ataladi. Mutloq jadallahish yoki so'nish sur'ati deb-zanjirsimon usuldagagi mutloq o'zgarish qiymatlari ayirmasiga aytildi. Jadallahish yoki so'nish sur'ati (%) zanjirsimon usuldagagi o'sish sur'atining bir davr keyingi davrning o'sish sur'atiga nisbatining foizlarda ifodasiga aytildi (To'ychiyev, 2023). Yuqoridagi barcha statistik tahlil qiymatlari ya'ni 1% qo'shimcha o'sish qiymati, mutloq jadallahish, hamda jadallahish yoki so'nish sur'ati qiymatlarini quyidagi 3- jadvalda batafsil keltirilgan.


Yuqoridagi jadvalni 1% li qo'shimcha o'sish sur'ati bo'yicha tahlil qilinsa, ushbu ko'rsatkichning eng katta qiymati 2019 yil 1042 birlik hamda 2021 yilda 1065 birlikni tashkil etdi. Eng kichik qiymatni esa 2023 yilda -39,56 birlik 2012 yil 5,74 birlik va 2014 yil 6,87 birlikka teng bo'ldi. Umuman olganda tahlil qilingan 14 yil mobaynida umumiy qiymat 3212,87 birlikni, o'rtacha qiymati esa 229,49 birlikni tashkil etdi. Mutloq jadallahish yoki so'nish sur'atining umumiy qiymati 300 ga o'rtacha qiymati esa 27,35 ga teng bo'ldi. 2012, 2014, 2017, 2020 hamda 2023 yillarda mutloq jadallahish manfiy qiymatni qabul qildi. Bu esa mutloq o'zgarish qiymati ushbu yillarda manfiy bo'lganligini anglatadi.

3-jadval

2010-2023 yillarda Surxondaryo viloyatidagi sanoat korxonalarining o'sish sur'ati, 1 %ga qo'shimcha o'sish qiymati, mutloq jadallahish yoki so'nish hamda jadallahish yoki so'nish sur'ati qiymatlari ko'rsatkichlari bo'yicha statistik tahlillar

Yillar	Sanoat korxonlari soni	1 % qo'shimcha o'sish sur'ati	Mutloq jadallahish yoki so'nish sur'ati	Jadallahish yoki so'nish sur'ati
2010	36			
2011	72	5,86		
2012	65	-5,74	-11,60	-98,00
2013	97	7,62	13,36	-132,65
2014	87	-6,87	-14,49	-90,23
2015	109	47,47	54,35	-690,52
2016	150	121,05	73,57	254,98
2017	212	100,44	-20,61	82,97
2018	374	307,8	207,36	306,45
2019	716	1042,38	734,58	338,65
2020	1225	221,13	-821,25	21,21
2021	834	1065,01	843,87	481,61
2022	548	306,72	-758,28	28,80
2023	400	-39,56	-346,25	-12,89
Jami		3212,87	300,86	503,27
O'rtacha		229,49	27,35	45,75

Umuman olganda mutloq jadallahishning eng yuqori qiymati 2021 yilda 843 birlikka, 2019 yilda 734 birlikka teng bo'lganligini ko'rish mumkin. Jadallahish yoki so'nish sur'ati tahlili esa shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu ko'rsatkichning eng yuqori (maksimal) qiymati 2021 yilda 481,61 ga, eng kichik qiymati esa 2015 yilda -650 birlikka teng bo'ldi. Umumiyligi 503,27 ga, o'rtacha ko'rsatkich esa 2013 yilda -132 birlikka teng bo'ldi. Umumiyligi tahlillar tasviri quyidagi 5- rasmida keltirildi.



5- rasm. 1 %ga qo'shimcha o'sish qiymati, mutloq jadallahish yoki so'nish hamda jadallahish yoki so'nish sur'ati qiymatlari tasviri

Tahlil natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berishini izohlasak, o'sish va pasayishini 2011, 2013, 2020 va 2022 yillarda sanoat korxonalari soni kamaygan, bu o'sha yillarda sanoat faoliyatining pasayishiga olib kelganini ko'rsatadi. Eng katta pasayish 2020 yilda, ya'ni COVID-19 pandemiyasi ta'sirida kuzatilgan. Qolgan yillarda esa sanoat korxonalari soni o'sishga erishgan. Yangi korxonalar tashkil etish jihatidan qaraydigan bo'lsak, 24 yil davomida jami 364 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etilgan, bu yiliga o'rtacha 15 ta yangi korxona tashkil etilganligini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish 2019 yilda kuzatilgan (509 ta yangi korxona), 2020 yilda esa keskin tushish (286 ta kamayish) ro'y bergan. Xorijiy investitsiyalar ta'sirini baholasak, 2017–2019 yillar davomida sanoat korxonalari soni sezilarli darajada oshgan. Bu davrda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan siyosatning muvaffaqiyati natijasida sanoat sektori rivojlangan. Iqtisodiy o'sish trendini qaraydigan bo'lsak, bazisli usulda tahlil qilganda, sanoat korxonalari soni umumiy ravishda o'sish ko'rsatkichini berishi, shu jumladan xorijiy investitsiyalar oqimi va sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar ta'sirini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sanoat sektori davomida o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa-da, pandemiya kabi global omillar bu o'sishni vaqtincha sekinlashtirganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Sanoat korxonalari sonining o'sishi va pasayishiga asoslanib, quyidagi takliflarni berish mumkin:

- pandemiya ta'siriga qarshi strategiyalarni kuchaytirish zarur. 2020 yilgi pandemiya natijasida sanoat korxonalari sonining keskin kamayishini inobatga olib, kelgusida shunday global inqirozlar uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida sanoatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sog'lom siyosatni ishlab chiqish zarur. Shu jumladan, sanoat korxonalariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini taklif qilish mumkin.
- xorijiy investitsiyalarni yanada jalb etishni oshirish lozim. 2017–2019 yillarda kuzatilgan sanoat o'sishining asosiy sabablaridan biri xorijiy investitsiyalarning faol oqimi bo'lgan. Kelajakda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish va sanoat infratuzilmasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur.
- raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash lozim. Sanoat sohasining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasini kuchaytirish, shu jumladan, sanoat 4.0 tamoyillariga o'tish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.
- kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash kerak. Sanoat korxonalarining soni ko'payganligi yaxshi, lekin kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va ular uchun maxsus kreditlar, ta'lim va trening dasturlarini tashkil etish orqali tarmoqning yanada mustahkam poydevorini yaratish lozim.
- sanoat sektori diversifikatsiyasi oshirish lozim. Sanoat sektori faqat bir yo'nalishda emas, balki turli sohalarda diversifikatsiya qilishni davom ettirish, yangi texnologik va ekologik yechimlarni ishlab chiqish orqali o'sishni ta'minlash mumkin.
- infratuzilma va logistika sohasiga e'tibor qaratish lozim. Sanoat sektori rivojiga to'sqinlik qiluvchi infratuzilma va logistika muammolarini hal etish, ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlarining o'zaro bog'lanishini kuchaytirish va ichki bozorni yaxshilash uchun muhim qadam bo'ladi.

Bu takliflar sanoat sektori o'sishining davomiyligini ta'minlash, yangi korxonalar yaratish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литерапамыра/References:

- Ibragimov Q. (2024) *Uy-joy qurilish bozorida korxonalarning raqobatbardoshligining iqtisodiy statistik tahlili va uni prognozlash*. Urganch.
- Ibragimov Q.T. (2022). *Economic-statistical analysis of active construction enterprises in Surkhandarya region*. 6b.
- Jo'raev O.A. (2023) *Meva-sabzavot klasterlarini tashkil etish masalalari va ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni/ UZA*. Yanvar. №01(39).
- Sayfullayev S.N. (2021) *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka kiritilgan investitsiyalarni statistik baholash/maqola*. Toshkent. May.
- To'ychiyev X.K. (2023) *Hududiy iqtisodiyot salohiyatini statistik baholash/ maqola*. Toshkent.
- Turayev B. E. (2023) *Surxondaryo viloyati qurilish materiallari sanoati rivojlanish tendensiyalari barqarorligini baholash/UZA*. Mart. №03(41).
- Turayev B.E. (2023). *Qurilish materiallari sanoati ishlab chiqarish hajmini modellashtirish/ UzBridge. elektron jurnali*. №01.
- Xatamov N.O. (2024). *Mintaqa iqtisodiy tizimini rivojlantirishdaxorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellari (Surxondaryo viloyati misolida)/ iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya-* Urganch, – 136 b.